



**Fuqarolik-huquqiy nizolarni sudga qadar va muqobil hal etish  
tartibini rivojlantirish masalalari**

**Toshkent davlat yuridik universiteti  
Xalqaro arbitraj va nizolarni hal qilish yo`nalishi magistri  
Xaitxodjayeva Farangis Avazovna**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada fuqarolik-huquqiy nizolarni sudgacha va muqobil yo`llar bilan hal etish tizimini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Unda nizolarni sudgacha hal etish shakllari – muzokara, mediatorlik, arbitraj va boshqa muqobil usullar tahlil qilinib, ularning samaradorligi, huquqiy asoslari va amaliyotdagi o`rni ko`rib chiqiladi. Muallif ushbu tartiblarning afzalliklari, xususan, vaqt va xarajat jihatidan tejamkorligi, tomonlar o`rtasida kelishuvga erishish imkoniyati hamda sud organlaridagi yuklamani kamaytirishdagi o`rni haqida fikr yuritadi. Shuningdek, bu sohadagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo`yicha takliflar ilgari suriladi. Maqola fuqarolik jarayonining soddalashtirilgan va samarali muqobil mexanizmlarini takomillashtirish bo`yicha nazariy va amaliy xulosalarni o`z ichiga oladi.

**Kirish:** Qonunchilikning sudlarni nizosiz ishlarni hal qilishdan ozod qilish hamda uncha uncha murakkab bo`lmagan nizolar bo`yicha odil sudlovning soddalashtirilgan shakllaridan foydalanish qismini takomillashtirish zaruriyatidan tashqari, ushbu vaziyatdan chiqishda nizolarni hal qilishning muqobil (alternativ) usullarini keng qo`llash hisoblanadi.

Birinchi marta “nizolarni muqobil hal qilish” atamasi AQShda murakkab va “bahaybat” rasmiy odil sudlovga qarama-qarshi ravishda nizolarni hal qilishning egiluvchan va norasmiy taomillarini anglatish uchun ishlatilgan.

Huquqiy nizolar va tortishuvlarni hal qilishning muqobil shakllari deganda nodavlat sud tizimi va uning ichida qo`llaniladigan nizolar (tortishuvlar)ni hal qilishning taomillari va usullari tushuniladi.

Nizolarni hal qilishning muqobil usullaridan foydalanish taraflar uchun salbiy oqibatlarini keltirib chiqarmaydi, balki aksincha, ularga ishonchli aloqalarning saqlanib qolishi va erishilgan kelishuv natijasida ishbilarmonlik aloqalarini davom ettirishga imkon beradi.





Nizolarni muqobil hal qilish usullarini qo'llash quyidagi holatlarda samarali hisoblanadi:

tarablarning katta mablag' sarflanib o'rnatilgan va rivojlangan ishbilarmonlik aloqalari buzilish tahdidi ostida bo'lsa. nizolarni muqobil hal qilish bunday vaziyatlarda ancha afzalroq hisoblanadi, chunki u sud muhokamasiga qaraganda ancha "yumshoq" xarakter kasb etadi va munosabatlarning keskinlashuvidan qochishga imkoniyat yaratadi;

nizoni tez va kam sarf hal qilish zarurati mavjud bo'lsa;

nizolarni muqobil hal qilish, odatda kam xarajat talab etadi va ancha qisqa muddatlarda hal qilish imkonini beradi;

tomonlar o'zlarining tijorat sirlarini oshkor bo'lishini xohlamaganlarida;

nizo huquq masalalariga qaraganda texnik masalalarga tegishli bo'lsa; xorijda bunday nizolarning ko'pchiligi tegishli mutaxassislarning ko'rib chiqilishiga jo'natiladi.<sup>1</sup>

Nizolarni muqobil hal qilishga rasmiy odil sudlov faoliyatiga parallel mavjud bo'luvchi tizimi sifatida qarash mumkin. Sud tartibiga haqiqatda zarurat bo'lganda yoki boshqa muqobil usullar muvaffaqiyatsiz bo'lib chiqqanda murojaat qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Nizolarni muqobil hal qilish odil sudlov faoliyatini almashtirmaydi va almashtirolmaydi ham, unga bo'lgan kirish huquqiga to'siq bo'lolmaydi bo'lishi ham mumkin emas, u bilan raqobatga kirisholmaydi.

Hozirgi vaqtda qonunchilikda nizolarni sudga qadar hal qilish tushunchasi va umumiy tartibi qonunchilikda mustahkamlanmagan, ular shartnoma shartlari yoki qonunning da'vo berish uchun majburiy amalga oshirilishi lozim bo'lgan holatlargagina belgilab qo'yilgan. Ayrim protsessual olimlarning nuqtai nazariga ko'ra, nizolarni sudga qadar hal etish bosqichining mavjud emasligi ko'rsatilgan tartibning nizolarni vujudga keltiruvchi aniq majburiyatning muayyan darajada o'ziga xosligi bilan belgilanishi sababli qonun chiqaruvchining maqsadi hisoblanadi; nizolarni hal qilish majburiy tartibining mavjud emasligi fuqarolik huquqlarini sud tartibida himoya qilishni to'siq amalga oshirishga imkon beradi.<sup>2</sup> Ayrim olimlar esa, nizolarni sudga qadar hal etishning majburiy tartibini kiritish zarur bo'lgan nizolarning ro'yxatini kengaytirish lozim deb hisoblaydilar.

1

Ламкина Т.В. Руководитель юридической службы Торгово-промышленной палаты РМ. Председатель Третейского суда при Торгово-промышленной палате РМ. Материал опубликован в газете "Малый бизнес Мордовии" №11(17), ноябрь 2007.  
Интернет-конференция Председателя ВАС РФ В.Ф.Яковлева "Досудебное урегулирование споров и урегулирование споров на ранней стадии судопроизводства", 2004 г.



Nizolarni sudga qadar hal etish bo'yicha fuqarolik protsessi fanida bir qator tushuncha va kategoriyalar mavjud.

Ye.I.Nosirevaning fikriga ko'ra, rus huquqiy amaliyotida fuqarolik-huquqiy nizolarni hal qilish va tartibga solishning quyidagi nosudlov shakllari mavjud: muzokaralar, nizolarni hal qilishning talabnoma bildirish tartibi, vositachilik, hakamlik sudi.<sup>3</sup>

I.Yu.Zaxaryashevaning mualliflik nuqtai nazari ham diqqatga sazovordir. Uning fikricha, "sudga qadar (nosudlov) yarashuv taomillariga quyidagilar kiradi: muzokaralar; nizolarni hal qilishning talabnoma bildirish tartibi; vositachilik; fuqarolik-huquqiy bitim sifatida kelishuv bitimi".

Shunday qilib, nizolarni sudga qadar hal qilish keng ma'noda, bu kontragentlar o'rtasida kelib chiqqan nizolarni hal etishning shunday usuliki, u quyidgi belgilari bilan xarakterlanadi: ushbu tartibga sudga qadar murojaat qilgunga qadar kirishish; ushbu tartibning maqsadi kelishuvga erishish, taomilning oshkor etilmasligi, erishilgan kelishuvni ixtiyoriy bajarish.

Nizolarni sudga qadar hal etish tor ma'noda talabnoma, "buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni so'rab sudga murojaat qilishdan oldin, bo'lajak da'vogar (arz qiluvchi) o'zining huquq va manfaatlarini buzgan huquqbuzar (bo'lajak javobgar)ga kelajakda sudga hal qilinishi kutilayotgan ular o'rtasidagi nizoni hal qilish uchun murojaat qilish"ni o'z ichiga qamrab oluvchi nizolarni sudga qadar hal qilishning dastlabki tartibi.<sup>4</sup>

Mediatsiya bu nizolarni muqobil hal qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi. Mediatsiya – taraflarga nizo bo'yicha muayyan kelishuv ishlab chiqishga ko'makla-shadigan va bunda taraflar nizoni hal qilish va yechimini berish jarayonini to'liq nazorat qiladigan uchinchi shaxs holis, beg'araz, ishdan manfaatdor bo'lmagan taraf – mediator ishtirokidagi nizolarni muqobil hal qilishning usulidir.<sup>5</sup>

Mediatsiya instituti muayyan shartlar va qoidalarga, harakatlar ketma-ketligiga ega, shuningdek quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- Ixtiyoriylik;
- Ishonchlilik;
- O'zaro hurmat

3

*Носырева Е.И.* Альтернативное разрешение гражданско-правовых споров в США: Дис. ... д-ра юрид. наук. С. 268.

*Кузбагаров А.Н.* Примерение сторон по конфликтам частногоправового характера. Дис. ... д-ра. юрид. наук. СПб.: МВД РФ СПбУ, 2006. С. 150

[www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)



Taraflar tengligi;

Mediatorning xolisligi va beg'arazligi

Mediatsiya tartibining shaffofligi (oshkoraligi).

**Materiallar va metodlar:** Ushbu tadqiqotda fuqarolik-huquqiy nizolarni sudgacha va muqobil yo'llar bilan hal etish amaliyotiga oid O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari, xususan, Fuqarolik protsessual kodeksi, "Mediatorlik to'g'risida"gi qonun, shuningdek, arbitraj sudlari faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar asosiy manba sifatida o'rganildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

• **Huquqiy tahlil** – amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, sud qarorlari va ilmiy adabiyotlar tahlili orqali muqobil nizolarni hal etish shakllari o'rganildi;

• **Taqqoslash usuli** – O'zbekiston va boshqa mamlakatlar tajribasi solishtirilib, ularning o'ziga xos jihatlari aniqlab berildi;

• **Empirik metodlar** – mavjud statistika ma'lumotlari asosida muqobil hal etish tartiblarining amaliy qo'llanilishi va samaradorligi baholandi;

• **Tahliliy yondashuv** – mavjud muammolar tahlil qilinib, ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Mazkur metodlar orqali muallif fuqarolik-huquqiy nizolarni sudgacha va muqobil hal etish tizimining holatini chuqur o'rgandi hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalarga keldi.

**Tadqiqot natijalari:** Nizolarni hal qilishda vositachilardan foydalanish qadim zamonlardan mavjud bo'lib kelgan, tarixchilar bunday holatlarni hattoki, Bobil va finikiyaliklarning savdo faoliyatida qayd etishadi. Qadimgi Yunonistonda vositachilardan (proxenetas) foydalanish amaliyoti mavjud bo'lgan, rim huquqi, Yustinian (milodiy 530-533 yillar) kodeksidan boshlab vositachilikni tan olgan. Rimliklar "vositachi" tushunchasini anglatish uchun turli xil atamalardan foydalangan: internuncius, medium, intercessor, philanthropus, interpolator, conciliator, interlocutor, interpres, va nihoyat, mediator.<sup>6</sup>

Ayrim an'anaviy madaniyat o'choqlarida vositachi shaxsiga ruhoniy yoki qabila boshlig'i bilan bir qatorda e'zozlashgan va alohida hurmat bilan munosabat bildirishgan.

<sup>6</sup>

Коннов А.Ю. Понятие, классификация и основные виды альтернативных способов разрешения споров // Журнал российского права. 2004. N 12. С. 123.





Mediatsiya o'zining zamonaviy ma'nosiga XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, eng avvalo anglo-sakson huquqi mamlakatlari – AQSh, Avstraliya, Buyuk Britaniyada rivojlana boshladi, shundan so'ng Yevropada ham tarqala boshladi. Mediatsiyani qo'llashga bo'lgan birinchi urinish, qoida bo'yicha, oilaviy munosabatlar sohasidagi nizolarni hal qilishga taalluqli edi. Oqibatda, mediatsiya nizolar va tortishuvlarning keng spektrini hal qilishda, mahalliy uyushmalardagi nizolardan boshlab to savdo va ommaviy sohadagi murakkab ko'p tomonlama nizolar bilan nom qozondi.

Mediatsiya institutining qo'llanilish sohasi quyidagicha:

O'zaro korporativlar hamda ichki korporativ nizolar;

Bank va sug'urta sohasidagi nizolar;

Amalga oshirilishi ko'p taraflarining manfaatlariga tegishli loyihalarni kuzatish;

Oilaviy nizolar;

Ishdagi nizolar;

Mualliflik huquqi va intellektual mulk bilan bog'liq nizolar;

Ta'limdagi mediatsiya;

Madaniyatlar o'rtasidagi nizolar va boshqalar.<sup>7</sup>

“Kelishuv tartibi” – vositachilikning barcha turlarini, odatda nizolarni muqobil hal qilishning o'zaro harakatiga tegishli Muzokara, Mediatsiya, en: Collaborative law (nizolarni vositachilik orqali hal qilish) va Hakamlik sudi qamrab oluvchi “soyabonli” atama.<sup>8</sup>

Mediatsiya va vositachilikning boshqa turlari o'rtasidagi jiddiy farq shundan iboratki, vositachilar ko'pincha, nizo predmeti hisoblangan bilim sohasi bo'yicha ekspert bilimiga ega bo'ladi. Ayrim turdagi nizolarda vositachi huquqiy ma'lumotini taqdim etishga majbur. Bu taraflarga nizo predmetini tartibga soluvchi normativ doiraga muvofiq har qanday kelishuvni imzolash imkonini beradi, shuning uchun kelishuv tartibi o'zida tavsiyaviy jihatni o'zida aks ettirishi mumkin.

Mediatsiya tartibida esa, vositachi-mediator tavsiyaviy vazifaga ega emas. Buning o'rniga, mediator taraflarga nizoni umumiy tushunishni ishlab chiqish va nizoni hal qilish yo'nalishida harakat qiladi.

Mediatsiyaning turli xil yondashuv (uslub)lari mavjud: baholovchi, tezlashtiruvchi va o'zgartiruvchi. Baholovchi yondashuv sudga murojaat qilganda har

<sup>7</sup> Калдина М. Медиация как альтернативный способ разрешения коммерческих споров // Коллегия. 2005. N 1 – 3. С. 52 – 53.

<sup>8</sup> Зайцев А.М., Кузнецов Н.В., Савельева Т.Л. Негосударственные процедуры урегулирования правовых споров: учеб. пособие. –Саратов, 2000. – 342 с.



bir tarafning kuchli va kuchsiz dalillarini baxolashni nazarda tutadi, holbuki tezlashtiruvchi va o'zgartiruvchi yondashuvlar buni nazarda tutmaydi.

Vositachilik ham, mediatsiya ham nizoli masalalarni bildirish hamda nizo ishtirokchilari uchun maqbul keladigan kelishuv variantlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ushbu barcha tartiblar ancha yumshoq yondashuvlarni nazarda tutadi, va qabul qilingan qarorlar taraflarning roziligiga asoslanishi lozim. Bu anchagina huquqiy dalillar va isbotlar hisobiga ishtirokchi foydasiga odatda hl qiladigan an'anaviy sud jarayoniga qarama qarshi holatlardir.

Mediatorning o'rne maslahatchi yoki konsulytantning o'rnidan farqlanadi. Quyida keltirilgan mediatorlar va konsulytantlarning ishlari o'rtasidagi muhim farqni yo'qqa chiqarmaydi, biroq ko'rsatadi:

Mediator taraflar o'rtasida nizo to'g'risida muayyan aniq masalalarni hal qilishning aniq kelishuviga erishishiga asoslanadi. Maslahatchi esa, ko'proq nizo taraflarining o'z hulq atvorini anglab yetishiga yo'nalgan bo'ladi.

Mediator insoniy tuyg'ulardan haqida bilsada, ularni hisobga olmaydi. Maslahatchi esa asosan, odamlar o'zlarining tajribasiga muvofiq his etadilar deb xavotirlanadi.

Mediatorning fikri o'tgan voqealarni tahlil qilishga emas, balki odamlar o'z kelajagini qanday ko'rishadi degan holatga yo'nalgan bo'ladi. Maslahatchi o'tgan voqealarni tadqiq etish, o'rganish, sodir bo'lgan hodisalarni batafsil namoyon etish va iddaolarning hamda shaxs hulqining qonuniyligini muhim deb hisoblashi mumkin.

Mediator jarayonlarni nazorat qiladi, biroq ishti-rokchilarga yoki natijaga ochiqdan-ochiq ta'sir ko'rsatishga harakat qilmaydi. Maslahatchi esa, ko'pincha qarorlar qabul qilishda yoki masalalarning ayrim qismlarini ko'rib chiqishda taraflarga ta'sir ko'rsatadi.

Mediator, qoida bo'yicha, taraflar o'rtasida yuzma yuz muzokaralarni tashkil etadi va bunda shaxsan o'zi ishtirok etadi. Maslahatchiga ikki tomonni bir vaqtning o'zida ko'rishi shart emas.

Mediator doimo xolis bo'lishi shart. Maslahatchi esa, agar zarurat bo'lsa, ancha faol yordam berishi mumkin.

Mediatsiya har ikki tomonga muzokaralar o'tkazishga tayyor bo'lib turishni taqozo etadi. Konsulytantlar hattoki ikkinchi taraf tayyor bo'lmasa ham yoki xohlamasa ham, taraflardan biri bilan ham ishlashi mumkin.





Mediatsiya – odatda, bir yoki bir necha bosqichlar bilan chegaralangan tizimlashgan jarayon hisoblanadi. Maslahat berish esa, ancha uzoq vaqtni oladi, bu mijozning ehtiyoji va uning jarayondagi muvaffaqiyatiga bog‘liq bo‘ladi.<sup>9</sup>

Shuni qayd etish lozimki, tadbirkorlik faoliyati sohasida nizolarni muqobil (nosudlov) hal qilish usullarining rivojlanishi O‘zbekiston Respublikasining integratsiya, globallashtiruv jarayonlariga yanada kengroq kirishining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunga kelib, ishbilarmon jamiyatga vujudga kelgan nizolarni ishbilarmonlik aloqalarini uzmay hal qilishning tez, qulay, kamxarj, samarali nizolarni muqobil hal qilishning usullari va shakllarini faol qo‘llash lozim deb hisoblaymiz, chunki bu uzoq va qimmat bo‘lgan davlat sudining sud tartibiga qaraganda O‘zbekiston tadbirkorlari uchun ancha foydali hisoblanadi.

Fuqarolik va arbitraj protsessi jarayoni doirasida fuqarolik ishlarini amalga oshirish doirasida sud fuqarolar, tashkilotlarning shu jumladan, tadbirkorlik va boshqa iqtisodiy faoliyat, ommaviy ta‘lim sohasida buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida ishlarni ko‘rib chiqadi va hal qiladi. Biroq hozirgi vaqtga kelib huquqlarni sud tartibida muhofaza qilish muayyan munosabatlarning sub'ektlari o‘rtasida kelib chiqqan nizolarni hal qilishning yagona usuli emas.

Jahon amaliyotida mediatsiya, yarashtiruv, hakmlilik, vositachilik va boshqalar kabi nizolarni hal qilishning muqobil usullarining roli oshib bormoqda va shu bilan birga, kontragentlar o‘rtasida vujudga kelgan kelishmovchiliklarni tinch hal qilish ishbilarmonlikni yuritishning standarti sifatida belgilovchi tadbirkorlik faoliyati sohasida ko‘pincha qo‘llanilishi tendentsiyasi oshib bormoqda.

Nizolarni hal qilishning muqobil usullari ayniqsa, anglo sakson huquq tiimida rivojlangan. Shunday qilib, 1000 ta Amerika korporatsiyalari o‘rtasida so‘rov o‘tkazilishi natijasi shuni ko‘rsatadiki, ulardan 88% oxirgi uch yilda mediatsiyadan foydalanishgan, 79% hakamlilik tartibiga murojaat qilishgan, 81% mediatsiyani sud tartibiga qaraganda, ancha maqbul shakl sifatida qabul qilishgan, 59% mediatsiya institutini nizo ishtirokchilari o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini saqlab qolishga yordam berganligini qayd etishgan. Yevropa hamjamiyati doirasida oxirgi o‘n yillikda shuningdek, ijtimoiy munosabat ishtirokchilarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta‘minlovchi imkoniyatlardan biri sifatida nizolarni hal qilishning muqobil usullariga murojaat qilish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Xususan,

<sup>9</sup>

Виноградова Е.А. Альтернативное разрешение споров // Вестник Высшего арбитражного Суда РФ. 1997. №8. - С. 27





2002-yilda Yevropa komissiyasi tomonidan fuqarolik va tijorat huquqida nizolarni hal qilishning muqobil usullari masalalari bo'yicha Yashil kitob ishlab chiqildi. Huquqiy nizolarni hal qilishning nosudlov tartibining mashhurligi, bizning fikrimizcha, bir tomondan, nizolarni sud tartibida hal qilining takomillashtirilmaganligi (sudlarning ortiqcha zo'riqishi, odil sudlov faoliyatining uzoqqa cho'zilishi, sud xarajatlarining ortishi, sud organlariga ishonchning yo'qolishi) bo'lsa, boshqa tomondan, ishni ko'rib bo'lgach, ishbilarmonlik, shaxsiy munosabatlarning saqlanib qolishidir, chunki ishni nosudlov tartib doirasida ko'rib chiqish natijasida tarflarning yarashuvi yuz beradi, nizo ishtirokchilarining ikkalasi uchun maqbul bo'lgan, qoida bo'yicha, keyinchalik majburiy ijro etilishga zarurat bo'lmaydigan kelishuvga erishiladi.<sup>10</sup>

Yarashtiruv tartibini qo'llash nizoni sudda ko'rish vaqtida ham amalga oshirilishi ham mumkin, chunki odil sudlovning maqsadlaridan biri, mashhur rus protsessualist olimi M.Malinin qayd etganidek, "nizolarni hal qilish va tinch huquqiy munosabatlarni tiklash"dir.<sup>11</sup>

Rossiya Federatsiyasining amaldagi Fuqarolik protsessual va Arbitraj protsessual kodekslari sudlarga taraflarni yarashtirish vazifasini yuklaydi. Rossiya Federatsiyasi FPK ning 148-moddasi hamda APKning 133-moddasiga muvofiq, taraflarni yarashtirish ishni sud muhokamasiga tayyorlashning vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, xo'jalik sudlarida odil sudlovni amalga oshirishning vazifalaridan biri sifatida Rossiya Federatsiyasi APKning 2-moddasi ishbilarmonlik munosabatlaridagi hamkorlikni o'rnatish va rivojlantirishga ko'maklashish, ish muomalasi etikasi hamda odatlarining shakllanishini e'lon qilgan. Rossiya Federatsiyasi APK 15-bobi birinchi marta qonunchilik doirasida xo'jalik protsessi ishtirokchilariga nafaqat kelishuv bitimini imzolashni belgiladi, balki nizolarni boshqa yarashtiruv taomillaridan foydalangan holda, agar bu federal qonunlarga zid kelmasa, nizolarni hal qilishni belgilab berdi (RF APKning 138-moddasi).

Jahon amaliyotida turli xil variantlar ma'lum. Shunday qilib, AQShda fuqarolik protsessi Federal qoidalariga muvofiq, sudyalarga taraflar o'rtasidagi nizoni sudgacha bo'lgan majlislarda hal qilishga ko'maklashish tavsiya etilgan. "Bir xil sudlarda kelishuvga ish to'laligicha ko'rib chiqishga tayyorlangandan so'ng amalga oshiriladi,

<sup>10</sup>

Херсонцев А.И. Альтернативное разрешение споров: проблемы правового регулирования и европейский опыт // Российский юридический журнал. 2003. № 1. С. 17 - 18.; Виноградова Е.А. Фундаментальные положения гражданского процессуального права // Современная доктрина гражданского, арбитражного процесса и исполнительного производства. Теория и практика. Сборник научных статей. – Краснодар. Издательство Р. Асланова "Юридический центр Пресс", 2004. С. 27.



boshqalarida esa, nizolarni hal qilish protsessini tashkil etish harakatlarida hal qilinadi. Uchinchi ikki harakt ham bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Ayrim sudlar oldindan nizolarni hal qilish bo'yicha haftaliklarni rejalashtirishadi. Ushbu vaqt davomida barcha yoki aksariyat sudyalari o'z ishlarini keyinga qoldirishadi va advokatlar yordamida taraflar o'rtasida kelishuvga erishish uchun qattiq shug'ullanishadi."<sup>12</sup> Amerika fuqarolik protsessida nizolarni hal qilishning ikki tomon uchun ham manfaatli bo'lgan variantlarni ishlab chiqishga ko'maklashuvchi sudyalari tomonidan ham, shuningdek sudga qadar bo'lgan majlislarni o'tkazish uchun sudya tomonidan tayinlangan mutaxassislar yoki magistratlar ham bo'lishi mumkin. Mutaxassis bo'lib bir tomondan sudya vakolatidagi ishlarni boshqarishni ta'minlash, boshqa tomondan nizolarni hal qilishgan ko'maklashuvchi sud yordamchilari hisoblanadi. Odatda, mutaxassis sifatida taraflar kelishuviga ko'ra tanlangan shaxslar tayinlanadi, tayinlash ishni ko'radigan sudyaning qarori asosida rasmiylashtiriladi. Sudya qarorda, shuningdek mutaxassis nizolarni sudga qadar hal qilish uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalga oshirish bo'yicha rejasini taqdim etishi lozim bo'lgan muddatni ko'rsatadi.<sup>13</sup>

Xitoy Xalq Respublikasi fuqarolik protsessida xalq sudlari fuqarolik sudlarini ko'rib chiqish vaqtida taraflarni yarashtirishni amalga oshirishadi. XXR FPKning 87-moddasiga muvofiq, xalq sudlari yarashtiruvni amalga oshira turib, hamkorlik qilish maqsadida tegishli tashkilotlar hamda xususiy shaxslarni taklif qilishlari mumkin. Yarashtiruv natijasida kelishuvga erishilgan taqdirda XXR xalq sudlari da'vo talablari, ish bo'yicha faktlar hamda yarashtiruv natijalari ko'rsatilgan yarashtiruv kelishuvini tuzadi. U sudya, sud majlisi kotibi tomonidan imzolandi, muhr bilan tasdiqlanib, tomonlarga taqdim etiladi (XXR FPK 89-m.). Agar kelishuv nikohni bekor qilish to'g'risidagi, aliment to'lash to'g'risidagi ishlar bo'yicha, darhol ijro etiladigan ishlar bo'yicha va yarashtiruv kelishuvi tuzish zaruriyati bo'lmagan boshqa ishlarda, XXR xalq sudi yarashtiruv kelishuvini tuzmaydi, taraflarning roziligi esa bunday holatda, taraflar tomonidan imzolangan yoki sudyalari yoki sud majlisi kotibi tomonidan muhr bilan tasdiqlangan boshlab darhol kuchga kiradigan bayonnoma rasmiylashtiriladi (XXR FPK 90-m.). Agar yarashtiruv natijasida kelishuvga erishilmasa yoki taraflardan biri unga yarashtiruv kelishuvi taqdim etilgunga qadar o'z qarorini o'zgartirsa, XXR xalq sudi ishni o'z vaqtida hal qilishi lozim.<sup>14</sup>

<sup>12</sup>

Носырева Е.И. Альтернативное разрешение споров в США. -М.: Городец, 2005. -С. 148  
Носырева Е.И. Указ. соч. С. 151.





Yevropa hududidagi mamlakatlarning ko'pchilik fuqarolik protsessual kodekslari ham yarashtiruv tartibi yordamida majburiy nizolarni sudga qadar hal qilishni nazarda tutadi. Belgiya va Frantsiyada sud taraflarga kelishmovchilikni nizolarni hal qilishning muqobil mexanizmlari yordamida hal qilishni taklif qilishi shart, biroq bunda nizo ishtirokchilarining ikki tomonlama kelishuvi tamoyiliga rioya etish zarur. Ispaniya va Italiyada sudya tarflarni yarashtiruv tartibiga murojaat qilishga ko'ndirishga barcha choralarni qo'llashga majbur. Angliya va Uelsda agar nizo ishtirokchilari mediatsiyadan voz kechgan taqdirda sud ularga nisbatan moliyaviy jazolar qo'llash huquqiga ega. Germaniyada taraflar kelishmovchilikni nizolarni muqobil hal qilish doirasida urinib ko'rmasalar odil sud faoliyati boshlanmagan. Gretsiyada birinchi instantsiyaning sudosti sudlarida ishlarni ko'rish, agar taraflar ishni kelishuv yo'li bilan hal qilishga urinib ko'rish choralarni amalga oshirmagan bo'lsalar yo'l qo'yilmagan.<sup>15</sup>

Taraflar kelishuv taomillarini faol qo'llashlari uchun huquqiy rag'batlantiruvchi, qiziqtiruvchi omillarni ishlab chiqish lozim, xususan, agar taraflar kelishuvga erishgan bo'lsalar sud xarajatlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar taqdim etish lozim.

**Xulosa:** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fuqarolik-huquqiy nizolarni sudgacha va muqobil tartibda hal etish usullari zamonaviy huquqiy tizimda muhim o'rin tutadi. Bu mexanizmlar nizolarni tez, kam xarajat bilan va tomonlarning manfaatlarini inobatga olgan holda hal etishga imkon yaratadi. Xususan, mediatorlik, arbitraj, muzokaralar orqali kelishuvga erishish yo'llari sud tizimining ortiqcha yuklamasini kamaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston qonunchiligida muqobil nizolarni hal etish institutlari joriy etilgan bo'lsa-da, ularning amaliyotdagi qo'llanishi keng emas. Bunga sabablardan biri aholining huquqiy madaniyati yetarli emasligi, malakali mutaxassislar va institutsional infratuzilmaning to'liq shakllanmaganligidir.

Kelgusida fuqarolik-huquqiy nizolarni sudgacha hal etish tartiblarini rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish muhim:

- Muqobil nizolarni hal etish institutlarini targ'ib qilish va fuqarolar orasida huquqiy ongni oshirish;
- Malakali mediator va arbitraj mutaxassislarini tayyorlash tizimini rivojlantirish;
- Amaldagi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish;

Современное законодательство Китайской Народной Республики. Сборник нормативных актов / Под ред. Л.М. Гудошников. М.: Зерцало-М, 2003. С. 275.

<sup>15</sup> Херсонцев А.И. Указ. соч. С. 120 - 121.






• Davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Shu tarzda, fuqarolik-huquqiy nizolarni muqobil hal etish tartiblarining takomillashuvi mamlakatda adolatli, ochiq va samarali huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ламкина Т.В. Руководитель юридической службы Торгово-промышленной палаты РМ. Председатель Третейского суда при Торгово-промышленной палате РМ. // Малый бизнес Мордовии. – 2007. – №11(17). – Ноябрь.
2. Яковлев В.Ф. Интернет-конференция Председателя ВАС РФ “Досудебное урегулирование споров и урегулирование споров на ранней стадии судопроизводства”. – 2004 г.
3. Носырева Е.И. Альтернативное разрешение гражданско-правовых споров в США: дис. ... д-ра юрид. наук. – С. 268.
4. Кузбагаров А.Н. Примирение сторон по конфликтам частноправового характера: дис. ... д-ра юрид. наук. – СПб.: МВД РФ СПбУ, 2006. – 150 с.
5. Коннов А.Ю. Понятие, классификация и основные виды альтернативных способов разрешения споров // Журнал российского права. – 2004. – №12. – С. 123.
6. Калдина М. Медиация как альтернативный способ разрешения коммерческих споров // Коллегия. – 2005. – №1–3. – С. 52–53.
7. Зайцев А.М., Кузнецов Н.В., Савельева Т.Л. Негосударственные процедуры урегулирования правовых споров: учеб. пособие. – Саратов, 2000. – 342 с.
8. Херсонцев А.И. Альтернативное разрешение споров: проблемы правового регулирования и европейский опыт // Российский юридический журнал. – 2003. – №3. – С. 116–117.
9. Малинин М. Теория гражданского процесса. – Одесса, 1881. – С. 17–18.
10. Виноградова Е.А. Фундаментальные положения гражданского процессуального права // Современная доктрина гражданского, арбитражного процесса и исполнительного производства. Теория и практика: сб. науч. статей. – Краснодар: Юридический центр Пресс, 2004. – С. 27.





11. Виноградова Е.А. Альтернативное разрешение споров // Вестник Высшего Арбитражного Суда РФ. – 1997. – №8. – С. 27.
12. Носырева Е.И. Альтернативное разрешение споров в США. – М.: Городец, 2005. – С. 148.
13. Носырева Е.И. Указ. соч. – С. 151.
14. Современное законодательство Китайской Народной Республики: сборник нормативных актов / под ред. Л.М. Гудошников. – М.: Зерцало-М, 2003. – С. 275.
15. Херсонцев А.И. Указ. соч. – С. 120–121.
16. Wikipedia.org – [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org) (foydalanilgan manba sanasi ko'rsatilishi tavsiya etiladi, masalan: Murojaat qilingan sana: 2025-yil 12-iyul).



---

**Research Science and  
Innovation House**